

PEDAGOGIK KONTEKSTDA BUYRUQ NUTQIY AKTI

Niholjonova Navbahor Inomjonovna

Fargʻona davlat universiteti Lingvistika: oʻzbek tili mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oʻqituvchi nutqida buyruq nutqiy aktning ifodalanishi, turli gap shakllari orqali amalga oshirilishi, pedagogik va psixolingvistik xususiyatlarini pragmlingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda buyruq mazmunini ochiq va bilvosita shakilda ifodalash usullari, ularning oʻquvchi xatti-harakatiga taʼsiri va pedagogik samaradorligi koʻrib chiqiladi.*

Kalit soʻzlar: *nutqiy akt, Oʻqituvchi nutqi, buyruq, ifoda, iltimos, pragmlingvistika, illokutsion maqsad, muloqot, direktiva, konstativ, kontekst, bilvosita ifoda, his-tuygʻular ifodasi*

Taʼlim jarayonida oʻqituvchi nutqi nafaqat axborot uzatish vositasi, balki oʻquvchilar faoliyatini boshqarish, ularni maʼlum harakatga undash va tartibga solish vositasi sifatida ham ahamiyatga ega.

Muloqot jarayonida ishlatilgan har bir soʻz maʼlumot beruvchi vosita boʻlish bilan birga, ijtimoiy, psixologik va hissiy faoliyatni ham ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, buyruq nutqiy akti oʻqituvchi nutqida alohida oʻringa ega. Buyruq nutqiy aktining shakli va mazmuni pedagogik samaradorlik, psixologik idrok va kommunikativ maqsad bilan bevosita bogʻliq. Buyruq mazmuni oʻquvchilarni ragʻbatlantirish, ularni faoliyatga undash va tartibga solishda strategik vosita sifatida ishlatiladi.

Har bir gapning shakli, ohangi, jimlik va imo-ishora ham maʼnoni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Xususan, Sh.Safarov uni quyidagicha taʼkidlaydi: "Nutqiy akt - bu nutq ishtirokchisi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-harakatdir va u maʼlum bir kontekstda maʼno yaratadi"³⁵.

Nutq akti nazariyasi - bu gaplar orqali inson qanday amaliy harakatlarni amalga oshirishini oʻrganuvchi konsepsiyadir. Bu nazariya tilshunoslik, falsafa va muloqotshunoslik sohalarini oʻzaro bogʻlab turuvchi muhim nazariy asos hisoblanadi. Dastlab John L. Ostin tomonidan ilgari surilgan bu gʻoya keyinchalik John Searle tomonidan takomillashtirildi va izchil rivojlandi.

Keyingi yillarda til va madaniyat oʻzaro kesishgan ilmiy yondashuvlar natijasida bu nazariya yangi semantik va pragmatik tahlillar bilan boyidi. Kundalik nutqimizda gaplar faqatgina maʼlumot yetkazish uchun emas, balki turli xil maqsadlarni ifodalashda ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, Jon L. Ostin oʻzining "How to Do Things with Words (Fikrlarni soʻz bilan qanday ifodalash mumkin)" asarida nutqiy aktlar nazariyasini taqdim qiladi³⁶. John L.Ostin nutq akti nafaqat gapning maʼnosi, balki uning nutq vaziyatidagi maqsadi va taʼsiri bilan birgalikda oʻrganish kerakligini taʼkidladi. U gaplarni: 1. Illokutiv akt (gapiruvchining maqsadini bildiruvchi bosqich.

Ushbu bosqichda faqatgina aytilayotgan gapning maʼnosinigina emas, balki uning ortida yotgan kommunikativ niyat ham inobatga olinadi); 2. Lokutiv akt (toʻgʻridan toʻgʻri nutq

³⁵ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – 786

³⁶ Austin, J.L. How to Do Things with Words. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1962, b. 101.

birligini yaratish jarayoni hisoblanadi. U asosan ifodaning ma'nosi va referensiyasi bilan bog'liq bo'lib, gapning kognitiv mazmunini bildiradi); 3. Perlokutiv akt (aytilgan gapning tinglovchiga ko'rsatgan real ta'siri, ya'ni u orqali qanday o'zgarish ro'y berishini anglatadi. Gap orqali tinglovchi fikri, hissiyoti yoki harakatiga ta'sir etilishini anglatadi. Masalan, biror gapdan so'ng kimningdir ishga kirishishi yoki fikrini o'zgartirishi perlokutsion natijadir) kabi uch qisimga bo'lib tahlil qiladi.

Biz mazkur nazariyani, ta'lim jarayonida, xususan, o'qituvchi va o'quvchilar kontekstida tahlil qilib, uning dolzarbligini yanada yaqqol namoyon qilishimiz mumkin. Masalan, o'qituvchining "Ushbu vazifani hoziroq tugatishingiz kerak" so'zi illokutsion akt bo'lib, bu gap buyruq xususiyatini kasb etadi. Agar ushbu gap natijasida o'quvchilar o'z harakatini o'zgartirib, vazifani bajarishga kirishsa, bu holat perlokutsion natija hisoblanadi.

Ostin g'oyalarini yanada rivojlantirgan Jon Searle (1969) esa "Nutq aktlari" asarida nutqning amaliy xususiyatlarini ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlashini chuqurroq tahlil qilgan³⁷. U tilning qanday ijtimoiy qoidalarga asoslanib ishlashini aniqlashga uringan va nutq aktlarining har xil turlarini (assertivlar, direktivlar, komissivlar, ekspressivlar va deklarativlar) tasnifladi. Bu nazariyaga ko'ra, insonlar "albatta, kelaman", "bahoyingiz 2" yoki "ma'zur tutasiz" kabi iboralarni ishlatganda, ular faqatgina axborot beribgina qolmasdan, amaliy harakatlarni ham amalga oshiradi. John Searle tasnifiga ko'ra nutqiy aktlar quyidagi guruhlarga bo'linadi (Searle, 1969):

Assertivlar - axborot rostligini tasdiqlovchi nutqiy harakatlar

Direktivlar - buyruq, talab, maslahat, iltimos

Kommissivlar - va'da, majburiyat

Deklarativlar - ijtimoiy-huquqiy o'zgarishlarni vujudga keltiruvchi aktlar

Ekspressivlar - tabrik, taziya, tuyg'u, minnatdorchilik, kechirimlarni bildiruvchi aktlar hisoblanadi. Har bir tur o'zining maxsus illokutsion kuchiga ega bo'lib, muloqot jarayonining mazmunidan tashqari uning ijtimoiy natijasini ham belgilaydi.

Direktiv aktlar tinglovchini ma'lum bir harakatni bajarishga undashni maqsad qiladi. Pedagogik kontekstda buyruq nutqiy akti o'quvchi xatti-harakatini tartibga solish va faoliyatini yo'naltirish vositasi sifatida xizmat qiladi. O'qituvchi nutqida buyruq bir nechta asosiy vazifalarni bajaradi. Masalan, "Daftaringizni oching va mashqni bajaring", "Kitobni o'qing", "Daftarga mavzuni yozing" kabilar faoliyatni tartibga solishni bildirsa motivatsiya berish uchun "Agar vazifani to'liq bajarsangiz, qo'shimcha ball olasiz", "Birinchi javob berganga yuqori baho qo'yamiz" kabilar misol bo'la oladi.

Buyruqning yumshatilgan shaklini biz o'qituvchining nutqidan misol keltirishimiz mumkin: "Dorskaga qaraymiz", "jim turamiz", "mavzuga diqqat qiling", "kimlar tayyor?", "tayyorlaning", "Iltimos, mashqni davom ettiring" kabilar misol bo'la oladi. Psixolingvistika nuqtai nazaridan buyruq nutqiy akti tinglovchi tomonidan tez va to'g'ri idrok qilinishi, shuningdek reaksiya va xulqni boshqarishga qodir bo'lishi lozim.

Buyruq nutqiy aktining ta'lim jarayonidagi o'rni-o'qituvchi nutqida buyruq nutqiy akti ta'lim jarayonini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Amaliy faoliyatda buyruq nutqiy akti orqali o'quvchilarning diqqatini jamlash, ularni muayyan faoliyatga yo'naltirish hamda dars intizomini ta'minlash amalga oshiriladi.

³⁷ Searle, J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969, b. 16– 19.

Pedagogik nutqda buyruq faqat qat'iy buyruq sifatida emas, balki didaktik maqsadga xizmat qiluvchi kommunikativ strategiya sifatida qo'llanadi. Shu sababli o'qituvchi buyruq mazmunini vaziyatga mos ravishda turli nutqiy shakllar orqali ifodalaydi.

Darsni tashkil etishda buyruq nutqiy aktining qo'llanilishi darsning boshlanishi, asosiy va yakuniy bosqichlarida buyruq nutqiy akti turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi:

Dars boshida: "Daftaringizni oching", "Bugungi mavzuga e'tibor bering" bu holatda buyruq nutqiy akti dars jarayonini boshlash va o'quvchilarning e'tiborini jamlash vazifasini bajaradi.

Dars jarayonida: "Endi mashqni mustaqil bajarasiz", "Juftlikda ishlaymiz" Bu buyruqlar o'quv faoliyatini yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi funksiyani bajaradi.

Dars yakunida: "Uyga vazifani yozib oling", "Daftarlarni topshiring" Bu yerda buyruq nutqiy akti nazorat va yakunlash vazifasiga ega.

Buyruq nutqiy aktining bilvosita shakllarda qo'llanilishi

Amaliy pedagogik nutqda buyruq ko'pincha bilvosita tarzda ifodalanadi. Bu o'quvchilarning psixologik holatini hisobga olish va qarshilikni kamaytirish maqsadida qo'llaniladi. Biz o'qituvchining dars jarayonidagi nutqida (buyruq gap, darak gap, so'roq gap, shartli va modal konstruksiyalar)ni buyruqni ifodalovchi gap shakllarida ko'rishimiz mumkin. Buyruq mazmunining eng an'anaviy shakli – buyruq gaplar hisoblanib, fe'lning buyruq-istak shakli orqali ifodalanadi.

Misollar: agarda o'qituvchi bergan topshiriq hali ham bajarilmagan holda bo'lsa "Daftarni och", "Mashqni bajar" kabi to'g'ridan-to'g'ri buyruq berilganini ko'ramiz. Buyruqning yumshatilgan shaklida esa "Daftaringizni oching", "Mashqni bajaring" o'qituvchi o'quvchilarga xushmuomalalik bilan yuzlangani guvohi bo'lishimiz mumkun. Shu nuqtada ko'rinib turibdiki, nutqiy akt faqat so'zdan iborat emas, balki ohang, vaziyat, kimga murojaat qilinayotgani va ijtimoiy kontekst ham ma'noni belgilaydi.

Darak gaplarda buyruq nutqiy aktlar-bilvosita buyruq mazmunini darak gaplar orqali ifodalash mumkin:

Misollar: "Hozir barcha yozuv ishini boshlaydi", "Telefonlar dars davomida ishlatilmaydi" gramatik jihatdan darak gap bo'lsa-da, pragmatic jihatdan buyruq vazifasini bajaradi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, bu shakl qarshilikni kamaytiradi va tinglovchi tomonidan ijobiy qabul qilinadi.

So'roq gaplar esa-pedagogik nutqda buyruq so'roq shaklida ham berilishi mumkin: Misollar: "Daftaringizni ochasizmi?", "Tayyormisiz?" formada savol bo'lsa-da, tinglovchini harakatga undash daftarini ochishga va tayyorlanish vazifasini bajaradi.

Shartli va modal konstruksiyalarda buyruq nutqiy aktlar-buyruq mazmuni shartli yoki modal gaplar orqali ham ifodalaydi:

Misollar: "Agar mashqni to'liq bajarsangiz, baho yuqori bo'ladi", "Mashqni tugatish shart". Bu shakl buyruqni majburiyat yoki norma sifatida bildiradi, pedagogik jihatdan rasmiy va yumshoqlikni uyg'unlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutqiy aktlar kommunikativ jarayonning mazmunini belgilabgina qolmay, balki uning ijtimoiy va psixologik tomonlarini ham boshqaradi. Buyruq nutqiy akti o'qituvchi nutqining ajralmas qismi bo'lib, u ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishida muhim rol o'ynaydi. Buyruqning ochiq va bilvosita

shakllarda qo'llanilishi pedagogik va psixolingvistik jihatdan o'quvchi faoliyatini boshqarishda yuqori natija beradi. Shu sababli o'qituvchi nutqida buyruq nutqiy aktidan ongli va maqsadli foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Buyruq orqali o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini yo'naltiradi, intizomni ta'minlaydi va dars maqsadiga erishishni tezlashtiradi. Biroq buyruq nutqiy aktidan foydalanishda uning uslubiy shakli, ohangi va vaziyatga mosligi alohida ahamiyatga ega.

Muloyim, tushunarli va motivatsion buyruqlar o'quvchilarda ijobiy munosabatni shakllantirsa, keskin va noo'rin buyruqlar aks ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday ekan, o'qituvchi buyruq nutqiy aktini pedagogik mahorat, psixologik sezgirlik va kommunikativ madaniyat asosida qo'llashi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Austin, J.L. How to Do Things with Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1962, – 168 b.
 2. Searle, J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969, – 203 b.
 3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – Б.320
 4. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. – Б.176
 5. Ҳакимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари. – Тошкент, 2020. – Б.475
- G'ulomov, A., & Mengliyev, B. (2020). O'zbek tilining kommunikativ pragmatikasi. Fan va texnologiya.